



O'rta Osiyo Xonliklari Davrida Tibbiyot Fanining Ahvoli (Buxoro Misolida)

Haqberdiyev R. Sh., o'qituvchi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: O'zbekiston hududida tibbiyot fani rivojlanishining xonliklar davridagi bosqichlari, holati, shuningdek, u bilan bog'liq bo'lgan tarixiy-madaniy jarayonlar manbalar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar. Risola, Muqaddima, hujra, diyeta, manna, Qarshi, Ho'l chilla, Ich ketar, Eski Buxoro, Shifoxona, Dushanbe, Shahrisabz

Annotation: The stages, State of the development of medical science in the territory of Uzbekistan during the khanates, as well as the historical and cultural processes associated with it, were analyzed on the basis of sources.

Keywords. Brochure, prologue, cell, diet, manna, Karshi, wet chilla, diarrhea, old Bukhara, Hospital, Dushanbe, Shahrisabz

Kirish

Shayboniylar hukmronlik qilgan davrda (XVI asr) mamlakatda tibbiyot anchagina rivojlandi. Deyarli har bir shaharda kasalxona, nogironlar uyi, dorixona, tibbiy maktablar bo'lar edi. Kasalxonalarda tajribali tabiblar ishlar edilar. Ular talabalarga tib ilmidan ham dars berar edilar. Chuqur bilimli bo'lgan bu tabiblar tibga oid asarlar ham yozganlar.

So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo xonliklari aholi turmushida an'anaviy tibbiyot muhim o'rin tutgan. Buni Buxoro xonligi misolida yaqqol kuzatish mumkin. O'rta asrlar tibbiyoti markazida tabiblar figurasi turgan. Tabobatning sir-sinoatlarini chuqur egallagan bu shaxslar o'z faoliyatlarida mahalliy olimlarning, aholining ko'p asrlik tajribasiga asoslanib yozgan ilmiy asarlaridan Hofiz Tanish Buxoriyning ko'rsatishicha, "mo'jizalar ko'rsatuvchi va Iso qobiliyatiga ega" marhum mavlono mulla sulton Mahmud Tabibning o'g'li mavlono Abulhakim edi. Abullaxonni davolash jarayonida u hukumdorning oshqozonini yuvib, bir necha kunga ovqatlanish jadvalini tuzgan va kerakli dorilarni tayyorlagan edi, - deb ko'rsatadi muarrix.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Movarounnahrlik tabiblar juda mahoratli bo'lib, ularning mahorati haqida Dashti Qipchoqqa yurishlari (1507) davomida Muhammad Shayboniyxonga hamroh bo'lgan XVI asr muarrixi Fazullloh ibn Ro'zbexon ham muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning qayd etishicha, yo'lda chechak va sariq kasaliga duchor bo'lgan bu muarrixni tabiblar qon chiqarib yuborish yo'li orqali davolaganlar¹. O'z kasbining mohir ustalari bo'lgan bunday tabiblar keyingi asrlarda ham jamiyat hayotida muhim o'rin tutganlar².

Tibbiyot sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar karvon yo'llarida tibbiy xizmat ko'rsatish rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlar davriga kelib bu sohada ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Shaharlardan tashqari, yirik qishloqlarda va muhim bekatlarda ham savdo karvonlariga, yo'lovchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilib, bu bilan shug'ullanadigan maxsus tabiblar guruhlar shakllandi. Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko'rsatish sirlari odatda avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, ko'plab tabiblar sulolalari paydo bo'ldi³. Xususan, mintaqaning chekka hududlarida ham yo'lovchilarga va ulov vositalariga malakali tibbiy xizmat ko'rsata oladigan mahalliy tabiblar bo'lganligi manbalarda qayd etiladi⁴.

¹ Фазулллох ибн Рўзбихон Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р.П. Джалиловой. Под. Ред. А.К. Арэндса. –М. Наука, 1976 – С. 86.

² Rustam o'g, R. Z. D. (2024). Ishlab chiqarish ta'limi shartnomasining belgilari va tashkiliy shakllari. Italy "actual problems of science and education in the face of modern challenges", 17(1).

³ O'rollov A. Samarqand shahrining o'rta asrlardagi davolash va shifobaxsh muassasalari ... –B. 234.

⁴ Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухари. –СПб., 1913. –С. 247.



Shayboniylar davrida o'zbekiston hududida yashagan yirik tabiblardan bizga Muhammad Husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kaxxol, Sulton Ali Xurosoniy, toshkentlik Mullo Muhammad Yusuf tabib, Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxol, Mir Muhammad Husayn al-Oqiliylar ma'lum. Muhammad husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy 1545 yilda dorishunoslikga oid bir asar yozib, unda har xil shifobaxsh o'simliklarning xossalari, ularni izlab topish, dori tayyorlash va ishlatish usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o'simliklarning rangli rasmlari berilgan, dorixonada ishlatiladigan asbob-uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning rasmlari ham keltirilgan.

Shoh Ali ibn Sulaymon ham ko'p tabiblarga o'xshab o'z asarlarini she'riy uslubda yozgan. Masalan, uning "kaxxolik san'atiga bag'ishlangan "Risola" asari she'riy usulda yozilgan. Asarda ko'zning tuzilishi, ko'z kasalligining kelib chiqishi, ularni aniqlash va davolash masalalari bayon etilgan va bu kasalliklar uchun maxsus dori tayyorlash usullari ham ko'rsatilgan.

Sulton Ali Xursoniy Samarqand xokimi Abu Mansur Kuchkinchixon saroyida xizmat qilgan. Bu muallifning bizga ma'lum va mashhur asari "Davolash dasturi" dir. Asarda kishi organizmining barcha a'zolari kasalligini boshdan boshlab, oyoqgacha batafsil bayon etadi. Sulton Ali Xurosoniyning bundan boshqa "Muqaddimai dastur ul-iloj nomli asari ham bo'lgan. Bu asar ko'pincha oddiygina qilib "Muqaddima" deb atalib kelingan. Muallif "Muqaddima"ga oddiy asarga kirmay qolgan ba'zi masalalarni kiritgan.

Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kahhol ham toshkentlik ko'zga ko'ringan tabiblardan bo'lgan. Bu tabib toshkent xokimi – Muhammad Darvish Bahodirxon saroyida xizmat qilgan. Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxolning mashhur asari "Kasallarni davolash" dir. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisida barcha a'zolarida uchraydigan kasalliklar bayon etilsa, ikkinchisi turli xil dorilarga bag'ishlangan⁵.

Muhammad Oqiliy (Mir Muhammad Husayn al-Oqiliy) ham tabiblar oilasidan bo'lgan. Asli o'zi Xurosonlik edi. Lekin Mashhadda yashagan. Muhammad Oqiliy o'z kasbini yaxshi egallagan mutaxassis tabib bo'lgan. Olimning tibga oid bir necha asari bor. Shulardan bizga ma'lumi «Dorilar hazinasi» va «Korabodin» (farmakopeya) nomli asarlaridir. Muallif "Dorilar hazinasi" asarida turli kasalliklar, ularning belgilari, diagnostika va davolash usullarini bayon etgan. Kitobda organlarning yunoncha, arabcha va turkcha (o'zbekcha) nomlari berilgan. "Farmakopeya" da esa har xil dori moddalari, ularning tayyorlash va ishlatish yo'llari ko'rsatilgan. So'nggi o'rta asrlarda elchilik missiyalari va yirik savdo karvonlari tarkibida maxsus tabiblar ham bo'lgan. Bu bir tomondan turli hududlar o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tibbiy bilimlarning savdo yo'llari bo'ylab turli mintaqalarga tarqalishiga xizmat qilgan. Maxsus choparlar, ayg'oqchilar va davlat xizmatidagi boshqa kishilar odatda, eng zarur tibbiy dori-darmonlar, turli dorivor giyohlar bilan ta'minlanib, ular o'zlariga va sheriklariga birlamchi tibbiy yordam ko'rsata olish malakasiga ham ega bo'lishgan⁶.

Bu vaqtdagi ko'zga ko'ringan tabiblardan biri – Subxonqulixon (Sayid Muhammad Subxonqulixon ibn Saydiodir Muhammadxon)dir⁷. Subxonqulixon Buxoro amiri edi. U har xil fanlar bilan qiziqqan, ayniqsa, tibbiyot bilan ko'proq shug'ullangan. Subxonqulixon saroyda tabiblarni yig'ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar o'tkazib turar edi. Subxonqulixonning amaliy tibbiyot bilan shug'ullangani ma'lum emas, ammo tibga oid ikkita asari borligi ma'lum. Bular "Subxon tibbiyoti" va "Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti"dir.

Subhonqulixon hukmronligi yillarida, ayniqsa, tibbiyot ilmi va adabiyot rivojlandi. Dor ush-shifoda bemorlarni davolash bilan bir qatorda ilmiy ishlar ham olib borilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo'lgan. U "Subhoni tibbiyoti bo'yicha davolash", "Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati" nomli ilmi nujumga oid risola

⁵ Кадилов А.А. История медицины Узбекистана. – Ташкент: ИПО ИБН СИНИ, 1994. – 223 с

⁶ Xo'jayev A. Turkiston tabobatining Xitoyga ta'siri // Moziydan sado. –Toshkent, 2006. –№ 3 (315). –B. 46-48

⁷ Akbar Zamonov. Ashtarxoni hukmdorlari. – Toshkent, Bayoz nashriyoti, 2021.



yoʻzgan. Hukmdor “Nishoniy” taxallusi bilan sheʼrlar bitib, saroyda oʻtkazilgan mushoiralarda oʻzi ham sheʼrlar aytgan.

Subxonqulixon mamlakat rahbari sifatida fuqaro sogʻligʻini saqlash ishlariga maʼlum darajada eʼtibor bergan. Maʼlumki, Oʻrta Osiyo sharoitida yozning issiq kunlarida aholi oʻrtasida ich ketish kasalligi koʻpayadi. Shuning oldini olish uchun Subxonqulixon novvoylar non yuziga kunjut urugʻini sepib yopsinlar, degan farmon chiqardi. Kunjut avvalo oʻzi xushboy hidli, yoqimli, ikkinchidan esa u ich ketishni toʻxtatadi. Farmon bilan boshlangan bu tadbir hozir odat tusiga kirgan⁸.

Subxonqulixonning farmoni bilan 1682-yilda Buxoroda kasalxona barpo etildi. U “Shifo beruvchi manzil” deb atalar edi. Kasalxona madrasa koʻrinishida qurilgan. U 18 ta hujra (palata) dan iborat boʻlgan. Kasalxona kompleksiga tibbiy maktab va kutubxona ham kirgan. Kasalxona va tibbiy maktabga (madrasaga) oʻsha zamonning koʻzga koʻringan olimlaridan Mavlono Mirqosim Hakim rahbarlik qilgan. Buxoro madrasasida tabiblaridan yana Xoja Amin Rais, Oxund Mullo Abdugʻafur Hakim, Xoja Yoqublar xizmat qilar edilar.

XIX asrning 20-yillarida Buxoroga kelgan sayyohlardan biri “Buxoroda tabiblar juda koʻp, dorilar esa undan ham koʻp”, - deb koʻrsatgan edi⁹.

Tabiblar turli kasalliklarni davolashda mahalliy davolash usullariga amal qilganlar. XIX asrning 20-yillarida Buxorodda boʻlgan YE.K.Meyendorf “barcha musulmon xalqlari singari buxoroliklar ham tabobatga katta hurmat bilan qaraydilar. Buxorolik yaxshi tabib kasalning tomirini ushlab, unga hech qanday savol bermagan holda uning kasalini aniqlashi lozim”, - deb koʻrsatgan edi¹⁰.

Bemorlarni davolash jarayonida tabiblar ular organizmining mijozini inobatga olganlar. Ular tomonidan mijoz issiq, sovuq, xoʻl va quruqqa ajratilgan. Ularga mutanosib tarzda davolash ham belgilangan. Xususan, tabiblar tomonidan bemorlarga ularning mijoziga toʻgʻri keladigan quvvatlantiruvchi, issiqlik, boʻshashtiruvchi yoki sovuqlik xarakteriga ega dorilar berilgan¹¹. Tabiblar shuningdek, oziq-ovqatlarni ham issiqlik, sovuqlik nuqtai-nazaridan klassifikatsiya qilganlar. Agar bemor issiq mijoz boʻlsa, unga sovuqlik xarakteriga ega dorilar, sovuq mijozlarga issiqlik dorilar berilgan. Davolanishning bunday uslubi – parhez (diyeta) deb atalgan¹². Shohidlardan biri “Tabobat kitoblarida hamma dorilar va oziq-ovqatlar yoki issiqlik, yoki sovuqlik tarzida koʻrsatilgan. Hatto uzumning oʻzi sovuqlik, uning danagi esa issiqlik hisoblanadi. Faqatgina non unisiga ham, bunisiga ham kirmaydi”, - deb koʻrsatgan edi¹³.

Tabiblar oʻz faoliyatlarida turli dori vositalaridan foydalanganlar. XIX asr boshlariga oid muʼlumotlarning koʻrsatishicha, Buxoroda tabiblar foydalangan dorilar soni 500 tadan 1000 tagacha yetgan. Dori-darmonlar bilan savdo qilinuvchi doʻkonda boʻlgan E.A.Eversman Buxoroda dorilarning mingga yaqin turi borligining aniqligi va bu son boʻrttirib koʻrsatilmagani haqida guvohlik beradi¹⁴.

Turli kasalliklarni davolashga qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, mevalar va sabzavotlardan keng foydalanilgan. Ulardan biri yumshatuvchi xarakterga ega. Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan alohida tavsiflangan, mashhur Buxoro olxurilari boʻlib, ular XIX asrning 30-yillariga oid maʼlumotlarga koʻra Buxorodan tashqariga, xususan, Hirotga katta hajmlarda olib ketilgan¹⁵.

⁸ Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova SH. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent.: 2014. – 110-117-b

⁹ Бухарские лекари (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана) // Сибирский вестник. 1823. Спб., Ч. IV. – С. 182. Фазаллах ибн Рузбехан Исфাহани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р.П. Джаблиловой; Под ред. А.К. Арендса. –М.: Наука, 1976 – С. 86.

¹⁰ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. –М.: Наука. 1975. С. 150.

¹¹ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. –М.: Наука. 1975. С. 150.

¹² Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 201.

¹³ Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 211.

¹⁴ Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 207. Б.

¹⁵ Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и В. Виткевича) – М.: Наука. 1983. – 81.



Dori sifatida “manna” dan ham foydalanilgan. 1721-1725 yillarda Buxoro xonligida bo‘lgan Florio Beneveni “Qarsiy” (Qarshi) yaqinida o‘sadigan o‘simlikdan yozda navotsimon shakar yig‘ib olinishi va undan dori tayyorlashda foydalanishlari haqida yozadi¹⁶.

Tabiblar tomonidan turli kasalliklarni davolashda foydalanilgan o‘tlar va gullar tog‘li hududlardan xonlik shaharlariga keltirilgan. Jumladan, bunday o‘simliklarning katta qismi Buxoroga Samarqand yaqinidagi tog‘ va shaharlardagi bog‘lardan keltirilgan¹⁷.

Tog‘lardan xonlik shaharlarida joylashgan do‘konlarga, shuningdek, dori tayyorlashda muhim rol o‘ynagan turli minerallar – mumiyo, achchiqtosh va Samarqand atroflarida qazib olingan simob ham keltirilgan¹⁸.

Mahalliy dorilar bilan bir qatorda tabiblar turli kasalliklarni davolashda xorijdan keltirilgan dori vositalaridan ham foydalanganlar. Ularning orasida Hindistondan keltiriladigan – novshadil, qalampirmunchoq, dolchin yong‘og‘i, zanjabil (imbir), sano va x.k. bor edi¹⁹.

Shunday qilib, Buxoro xonligida XIX asrda mahalliy tabobat an‘analariga asoslangan tabiblik instituti mavjud bo‘lib, ular asrlar davomida shakllangan va rivojlangan tajriba asosida muayyan darajada aholini davolashga xarakter qilganlar. Ular o‘z tibbiyyot amaliyotlarida mingga yaqin mahalliy dorilardan foydalanganlar. Shuningdek, mahalliy tabiblar Buxoro xonligi tashqi aloqalari natijasida xorijdan keltirilgan dori vositalaridan ham unumli foydalanganlar.

Chaqaloqlarda ko‘p uchraydigan kasalliklardan biri chilla kasalligi deyilib, uni ikki xilga ajratilgan. Birinchisi – quruq chilla kasalligi bilan og‘rigan chaqaloqlar ozib, ishtaxasi yo‘qolgan. Shuning uchun ham xalqda “quruq chilla bolani quritadi” degan tushuncha yuzaga kelgan. Bu kasallikning kelib chiqishi odamdan o‘tgan biror kishining chillasi chaqaloqqa tushganligiga bog‘liq deb hisoblanib, uni o‘lik chilla deb ham atalgan.

Chilla kasalligining ikkinchi xilida chaqaloqlarda yara-chaqa toshganligi sababli uni ho‘l chilla deb ham nomlangan. Xalq tasavvurlari va tabobatiga ko‘ra har ikkala turdagi chilla kasalligi davom etish muddatiga qarab qirq kunlik, tio‘rt oylik, bir yillik va bir necha yillik turlarga ajratilgan.

Bunday kasalliklarga chalinmaslik uchun avvalo marhum chiqarilgan xonadondan, chillasi chiqmagan yangi tuqqan ayoldan, yoki jonvorlardan uzoqroq yurishga harakat qilingan. Kasallikka chalingan holda marhumlarni jinozasi paytida chaqaloqni marhum atrofida aylantirish yoki marhumni yuvilgan vositalari qo‘llangan. Yoki chillaxonalarda chillabur qilish odati bajarilgan. Vohaning barcha tumanlarida chillamozorlar va chillaxonalar bo‘lib, rasm-rusumlar shu joylarda o‘tkazilgan. Dastlab mozorlardagi quduqlarning suvidan olib chaqaloqni cho‘mtirish, loydan yara-chaqalarga surtib, kiyimlarini mozorga tashlab kelish bilan kasallikdan qutilishga ishonilgan.

Ho‘l chilla bilan og‘rigan chaqaloqlarning yara-chaqasini davolash uchun shingof deb aytilgan kukunsimon doridan ham foydalanilgan. Bu dorini simobning oltingugurt bilan aralashmasidan iborat bo‘lib, jarohlarni davolash xususiyati haqida Ibn Sino ham yozib qoldirgan²⁰.

Ich ketar kasalligini ratsional usullar bilan davolashning bir qator xillari ham bo‘lgan. Jumladan, zo‘rizamin yoki salomalekum (curepus rotunolu) o‘simligi yanchilib, anor o‘zagi va zok (temir kuporosi – FeSO₄) bilan birga qatiqqa ko‘shib yedirilgan. Bu tadbir ancha qadimiy bo‘lib, o‘rta asrlarda ham anor guli va zok (zoy) ning ichini qotiruvchi va yaralarni burushtiruvchi vosita sifatida ma‘lum bo‘lganligini Ibn Sino qayd qilgan edi²¹.

Allergik kasallaridan biri gulavshon – qizilcha bo‘lib, bolaning badaniga qichima qizil toshmalar paydo bo‘lganda uni davolash uchun amalga oshirilgan amaliy-odatiy tadbir nomi bilan shunday atalgan. Xalq tasavvuriga ko‘ra bu kasallik makoni cho‘llar va ko‘llarda bo‘lgan ko‘zga ko‘rinmas zararli kuchlar ta‘sirida paydo bo‘lganligi uchun rasm-rusumlari bajarilib, gulovshonchi

¹⁶ Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флоридо Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М.: Наука, 1986. 85.


¹⁷ Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). С. 202.

¹⁸ Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. С. 111.

¹⁹ Записки о Бухарском ханстве. – С. 79-80.

²⁰ Ибн Сино. Тиб қонунлари. II китоб. Т.: 1956. – Б. 227.

²¹ Ибн Сино. Тиб қонунлари. II китоб. Т.: 1956. – Б. 170, 149, 220-223.



tomonidan gulovshon bayti o'qilib, uning da'vati bilan o'z makoniga qaytish yoki jonvorlarga o'tishi mumkin deyilgan.

Vohada yashovchi o'zbek va tojiklarda chechak, qizamiq, tepki (paratit, svinka), zo'rzanak (kolit), sarg'ayma, terlama (tif), bezgak (malyariya), ko'z rg'rig'i, quloq og'riq, tomoq og'riq singari kasalliklarni davolash bilan bog'liq qator urf-odatlar va irim-sirimlar bilan birga amaliy-foydali ratsionlar chora va vositalar ham qo'llanilganligi xalqimizning o'ziga xos tibbiyot ilmi va madaniyatidan, e'tqod, tushuncha va tasavvurlaridan dalolat beradi.

Ushbu davrda mashhur "Tuxfai ahli Buxoro" (1912-y.) asarining muallifi Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy (1877-1914-yillar) tabib sifatida faoliyat yuritgan. Mirzo Sirojiddin ovrupocha ilmiy tibbiyotni birinchilar qatorida o'rganib, (u Tehronda Amerika tibbiy kollejni bitirib, shahodatnoma olgan va muayyan vaqt amerikalik tabiblar bilan xamkorlikda Texron kasalxonasida ishlagan) uni o'z vatanida targ'ib va joriy qilgan hakimlardandir. U Buxoro axolisini soxta tabiblardan extiyot bo'lishga davat etgan va sharni zamonaviy usulda davolash maqsadida ko'p ishlar qilgan. Uning "Tuxfai axli Buxoro" asari Yaqin Sharq va Ovro'po mamlakatlaridagi tibbiyot taraqqiyotidan xabar beruvchi, aholiga tibbiyotga nisbatan rag'bat uyg'otuvchi manbadir. U musulmon mamlakatlari nufuzi kamayib borishining asosiy sababini xifz-us-sixat (sog'likni saqlash) qoidalariga rioya qilmaslik va aholi turmush darajasining pastligida, tajribali tabiblar va kasalxonalarning kamligida deb biladi²².

1873-1875-yillarda Buxoro amirligi Rossiyaning tobe'siga aylanishi bilan rus shifokorlari qo'shin tarkibida Buxoroga kela boshladilar. Dastlabki harbiy lazaretlar amirlikning Afg'oniston bilan chegaradosh Termiz qo'rg'onida, Chorjo'y va Karkida ochildi. Bu yerda rus zobitlari va askarlari bilan bir qatorda mahalliy boy-badavlat kishilar ham davolanar edi.

Keyinchalik ko'pgina mahalliy saramoyadorlar tomonidan shaxsiy klinikalar va dori-honalarning ochilishi, o'lkada tarqalgan turli kasalliklarning oldini olish maqsadida hukumatning tibbiyotga e'tibor berishiga majbur bo'lishi bilan aholi orasida tibbiy yordamga ehtiyoj ma'lum ma'noda qondirila boshlandi. Endilikda barcha dori vositalari Rossiyadan olib kelinadigan bo'ldi. 1890 yil 7 avgustda Rossiya iperiyasi hukumati tomoni dan ishlab chiqilgan maxsus nizomga muvofiq amirlik hududida mavjud bo'lgan va yangi qurilayotgan dorixonalar tibbiyot deportamenti tomonidan yiliga uch marta tekshiruvdan o'tkazilgan. Dorixonalar faoliyat ko'rsatgan paytda qilingan nojo'ya xatti-harakatlar natijasida kelib chiqqan zararlarning biri Buxoro hukumati tomonidan qoplangan.

Mulkchilik shakli bo'yicha Buxoro amirligi hududidagi tibbiyot muassasalarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

1.Idoraviy muassasalar (temir yo'l kasalxonalari, ilmiy tekshirish institutlari, tibbiyot sanitariya xodimlari).

2.Tuman tasarrufidagi tibbiyot muassasalari.


3.Eski shahar tasarrufidagi tibbiyot muassasalari (hududiy tibbiyot muassasalari).

4.Yangi shahar tasarrufidagi tibbiyot muassasalari (shahar kasalxonalari, hududiy tibbiyot muassasalari).

Bu sohada amalga oshirilgan keyingi islohatlar amirlik hududida tarqalib avj olayotgan turli kasalliklarning oldini olish uchun rus manzilgohlarida doimiy vrachlik punktlarini tashkil qilish bo'ldi.

Ma'lumki, XIX – XX asr boshlarida Buxoro shahrida 100 dan ortiq hovuzlar mavjud bo'lib aholi shu hovuzlar suvidan iste'mol qilgan. Ammo hovuzlarning eskirgan va iflos suvini tzalash imkoniyati bo'lmagan. Buning natijasida shaharda turli yuqumli kasalliklardan biri rishta kasalligi ancha avj olishiga sabab bo'lgan. Manbalarda Mulla Ilyos Maxsum Husayn o'g'li tomonidan Buxoro shahri hovuzlaridagi antisanitariya holati to'g'risida gapirilib, shahardagi 86 ta xovuzning turli mikroblar makoni ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarning ahvoli og'ir bo'lgan. Dastlab amirlikda bitta ayollar shifoxonasi bo'lib, u ham atigi uch o'ringa ega bo'lgan. Amirlikda Rossiyaga qaram bo'lgan

²² Rajabova S. Unutilgan tabib. Fan va turmush.- Tashkent, 1997. -;№1.-B.32.



shifoxonalarning soni ancha kengaygan. Yirik sarmoyalarning ko'payishi bilan xususi klinikalarning ochilishiga imkon bergan.

Buxoro amirligida 1913-yilda quyidagi tibbiyot maskanlari faoliyat ko'rsatgan:

Birinchisi, XIX asrning 90-yillarida Eski Buxoro shahrida rus-tuzem shifoxonasi bo'lib, bu tibbiyot maskani har 30 bemorga bir shifokor xizmat ko'rsatgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1912-yilda mazkur shifoxonada 140 nafar rus millatiga mansub 249 nafar mahalliy aholi vakillari tibbiy muolaja maqsadida qabul qilingan.

Ikkinchisi, Karkidagi ambulatoriya 1892 yilda tashkil topgan bo'lib, bu yerda mahalliy aholi vakillarini davolash man qilingan.

Uchinchisi, Chorjo'ydagi shahar kasalxonasi bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, mazkur shifo maskani 1912-yilda mahalliy aholi vakillaridan 20 foizni qabul qilgan.

To'rtinchi, Eski Buxorodagi xotin-qizlar ambulatoriyasi bo'lib, 1918-yil 13-iyulda tashkil topgan. Bu tibbiyot maskanida bir vrach va uch bemorga mo'ljallangan joy bor edi.

Beshinchisi, Pattakesar harbiy lageri yaqinida ambulatoriya tashkil qilingan bo'lib, rus harbiylari uchun mo'ljallangan. Bu ambulatoriya ayrim hollardagina mahalliy aholi vakillariga xizmat qilgan. Shuningdek, 1903-yilda Termiz shahrida besh o'rinli rus harbiylariga mo'ljallangan davolanish maskani vujudga keldi.

Bu muassasalarni davolash darajasiga ko'ra quyidagicha farqlash mumkin.

1.Shifoxonaga yotib davolanishgacha bo'lgan daraja (ambulatoriyalar, poliklinikalar huzuridagi stansionarlar).

2.Shifoxonada yotish darajasi (statsionarlar, kunduzgi davolash bo'limlari).

3.Shifoxonaga yotgandan keyingi daraja (davolanishni oxiriga yetkazish, uyda tibbiy kuzatish) va boshqalar.

Har bir tashkil topgan tibbiyot muassasalarining raqobatchiligini quyidagi belgilar asosida farqlash mumkin. Masalan:

1.Davolash muassasalarining soni.

2.Joylashgan joyi.

3.Kategoriyasi.

4.Ixtisoslashuv darajasi (klinik, shahar kasalxonasi, tuman kasalxonasi).

5.Shifoxonadagi malakali shifokorlarning soni.

6.Tibbiyot muassasasi quvvati, ya'ni o'rinlari va bo'limlar soni.


7.Faoliyatning miqdor ko'rsatkichlari, davolangan bemorlar soni.

8.Faoliyatning sifat ko'rsatkichlari, shifoxonada yotqizish darajasi.

Amir Olimxon aholining tibbiy salomatligiga, ayniqsa, xotin-qizlar va bolalar salomatligiga jiddiy qaraydi. Uning tashabbusi bilan 1911-yil iyul oyida Buxoro shahrida ayollar shifoxonasi ochiladi. Unda rus millatiga mansub ayol shifokor 1911-yil davomida 3551 nafar ayollar va bolalarga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, 1912-yilda 13551 nafar bemorlarni davolaydi. 1912-yilda shifoxona yonida tug'ruqxona ham qurilgan. Shuningdek, amir 1913–1916-yillar davomida Eski Buxoro, Karki, Chorjo'y, Hisor, Dushanbe, Qarshi va Shahrisabzda erkaklar va ayollar uchun ambulatoriya punktlari va kasalxonalar qurdiradi. Eski Buxoroda ayollar ambulatoriya punkti va shifoxona bo'lib, u amirlikdagi eng katta shifoxona edi. Buxoro hukumati bu shifoxona faoliyati uchun har yili xazinadan 31173 rubl 50 tiyin mablag' ajratgan. Qarshi, Dushanbe, Shahrisabzdagi shifoxonalar ta'minoti uchun esa 12 ming rubl pul ajratilgan. Shifoxonadagi mutaxassislar rus millatiga mansub bo'lib, vrachlar har yili amir xazinasidan 4000 rublgacha, feldsherlar 1750 rublgacha maosh olishgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda mamlakatimiz tarixining dastlabki bosqichidan boshlab yozma manbalarda sog'liqni saqlash umuman tabobat sohasiga oid ma'lumotlar uchraydiki, bular mahalliy aholining turli dardlarga qarshi davolanishida tajribali tabiblar kumagiga tayanganini isbotlasada,




diniy va har xil an'anaviy tabobat usullari katta o'rin eganligini inkor etish qiyin²³. Ya'ni eramizning boshlarida zardushtiylikning muqaddas kitobi – Avestoning ayrim qismlarida tabobat va shifo topishga yordam beruvchi duolar qayd etilgan bo'lsa, keyinroq esa islom dinining yoyilishi natijasida tibbiyot ilmining asosini belgilovchi o'zagiga aylandi. Garchi o'rta asrlar davrida real tibbiyot ilmiga diniy qarashlar katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, uning haqiqiy ahamiyatini va qiymatini bugungi kunda ham sog'liqni saqlashga ulkan hissa qushayotgan allomalarimiz asarlari ko'rsatib bera oladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayniqsa ayollar uchun zamonaviy tibbiy muassasa vujudga kelishi ijobiy hol bo'lgan edi. Shuningdek, mahalliy ayollar an'anaviy tibbiyot bilan bir qatorda zamonaviy tibbiyot xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ma'lum darajada ega bo'lgan edilar. Ammo tashkil etilgan ambulatoriyalar va shifoxonalar son jihatdan kam bo'lib, faqatgina katta shaharlar aholisining ayaim qismini qamrab olgan. Amirlik aholisining asosiy qismi, ayniqsa qishloq aholisi e'tibordan chetda qolib kelgan. Bundan tashqari ular moliyaviy tomondan og'ir ahvolda edi. Shuningdek, meditsina xodimlarining mahalliy tillarni bilmasligi hamda tarjimonlarning yetishmasligi mahalliy ayollarga tibbiy yordam ko'rsatishni qiyinlashtirgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фазулллоҳ ибн Рўзбихон Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р.П. Джалиловой. Под. Ред. А.К. Арендса. –М. Наука, 1976
2. O'rolov A. Samarqand shahrining o'rta asrlardagi davolash va shifobaxsh muassasalari .
3. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухари. –СПб., 1913.
4. Кадиров А.А. История медитсина Узбекистана. – Тошкент: ИПО Ибн Сини, 1994.
5. Xo'jayev A. Turkiston tabobatining Xitoyga ta'siri // Moziydan sado. –Toshkent, 2006. –№ 3 (315).
6. Akbar Zamonov. Ashtarxoni hukmdorlari. – Toshkent, Bayoz nashriyoti, 2021.
7. Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmamatova Q.CH., Abdurashidova SH. A. Tibbiyot tarixi. - Toshkent.: 2014.
8. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. –М.: Наука. 1975.
9. Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С.
10. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и В. Виткевича) – М.: Наука. 1983.
11. Посланник Петра I на Востоке. Посольство Флорио Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. – М.: Наука, 1986.
12. Ибн Сино. Тиб қонунлари. II китоб. Т.:. 1956.
13. Rajabova S. Unutilgan tabib. Fan va turmush.- Tashkent, 1997.
14. Rustam o'g, R. Z. D. (2024). Ishlab chiqarish ta'limi shartnomasining belgilari va tashkiliy shakllari. Italy "actual problems of science and education in the face of modern challenges"., 17(1).
15. Togaymurodov, J. (2023). SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 215-218
16. Muminova G., Tashpulatov B. POLITICAL REPRESSIONS DURING THE PERIOD OF COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – С. 725-729.
17. KarSU G. M., KarSU B. T. POLITICAL REPRESSIONS DURING THE PERIOD OF COLLECTIVIZATION IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF KASHKADARYA REGION). – 2022.

²³ Togaymurodov, J. (2023). SOCIAL POTENTIAL OF RELIGIOUS TOLERANCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(5), 215-218.



-
18. Tashpulatov B. S. LOOKING AT THE HISTORY OF MEDICAL EDUCATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN) //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 23. – С. 176-181.
 19. Tashpulatov B. History of Training of Higher Medical Staff in Khorezm Region //НАУКА И ТЕХНИКА 2021. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ. – 2021. – С. 10-13.
 20. Shukhratovich T. B. HISTORY OF TRAINING OF SECONDARY MEDICAL SERVICES IN UZBEKISTAN //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2021. – Т. 7. – С. 1-1.
 21. Ташпулатов Б. Ш. История Медицинских Институтов Узбекистана //ББК 1 Е91. – 2020. – Т. 215.
 22. Ташпулатов Б. Ш. Медицинское образование в Узбекистане //Электронный сетевой политематический журнал " Научные труды КубГТУ". – 2020. – №. 3. – С. 480-486.
 23. Ташпулатов Б. Ш. XX АСРДА ТУРКИСТОНДА ТИББИЁТ ЙЎНАЛИШИ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ.–2020.–№. SI-1 №. – Т. 3.